



DIALOGIK DISKURSDA FRAZELOGIK BIRLIKLAR: ULARNING QO'LLANILISHI VA TARJIMASI

Uraimshikova M. R.

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Frazeologik birliklar (FB) dialogik nutqning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ular nutqning ifodaliligini, kogerentligini va madaniy tusini ta'minlaydi. Ammo ularning turli tillarga, ayniqsa ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjimasi lingvistik va madaniy farqlar tufayli katta muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu tadqiqot frazeologik birliklarning xususiyatlari, funksiyalari va tarjima strategiyalarini tahlil qiladi. Badiiy matnlar, audiovizual materiallar va haqiqiy muloqotlar tahlil qilinib, turli tarjima yondashuvlarining samaradorligi baholandi. Natijalarga ko'ra, ekvivalentlik, adaptatsiya va parafraz qilish eng ko'p qo'llaniladigan usullar bo'lib, ularning har biri o'ziga xos afzallik va cheklovlarga ega. Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarni tarjima qilishda madaniy sezgirlik va kontekstual tushunishning muhimligini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *dialogik diskurs, frazeologik birlik, funksiya, pragmatika, tarjima, lingvokulturologiya.*

Abstract: *Phraseological units (PUs) are one of the essential components of dialogic speech, as they ensure expressiveness, coherence, and cultural depth of communication. However, their translation into different languages, particularly between English and Uzbek, presents significant challenges due to linguistic and cultural differences. This study analyzes the characteristics, functions, and translation strategies of phraseological units. Literary texts, audiovisual materials, and authentic communicative interactions were examined, and the effectiveness of various translation approaches was evaluated. The findings indicate that equivalence, adaptation, and paraphrasing are the most frequently used strategies, each possessing its own advantages and limitations. The results of the study confirm the importance of cultural sensitivity and contextual awareness in the translation of phraseological units.*

Keywords: *dialogic discourse, phraseological units, function, pragmatics, translation, linguoculturology.*

Kirish

Frazeologik birliklar, jumladan idiomalar, birikmalar va maqollar, dialogik nutqning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular nutqni ravon va ta'sirchan qiladi, his-tuyg'ularni ifodalashga yordam beradi va madaniy xususiyatlarni aks ettiradi. Frazeologik birliklar ko'pincha umumiy ma'nolarini o'z tarkibiy qismlaridan anglab bo'lmaydigan ifoda vositalaridir (Galperin, 1977). Maslova (2004) ta'kidlaganidek, "Frazeologik birliklar – bu ma'nosi uni tashkil etuvchi komponentlarning yig'indisidan



kelib chiqmaydigan, chuqur kognitiv va madaniy talqinni talab qiluvchi til birliklaridir." Tadqiqotda ushbu birliklarning xususiyatlari, vazifalari va tarjima usullarini o'rganib, asosiy muammolar va ularning yechimlarini ko'rib chiqadi. Dialog jarayonida so'zlovchilar o'z fikrini tez, ixcham va ta'sirchan yetkazishga intiladi. Aynan shu nuqtada frazeologik birliklar nutqning muhim komponentiga aylanadi. Frazeologik birliklar muloqotda emotsional rang, baholovchilik, obrazlilik va madaniy ma'no yukini olib keladi. Turli tilshunoslar frazeologik birliklarning dialogik diskursdagi ahamiyatini turli nazariy nuqtayi nazardan izohlaydilar. Xususan, A.V. Kunin ularning funksional tizimini ishlab chiqqan bo'lsa, Sh. Balli frazeologizmlarning stilistik va ekspressiv tabiatiga urg'u beradi. O'zbek tilshunosligida esa G.E. Xakimova, Z. Narimonova, A. Haydarov va G. Jo'raqulova frazeologik birliklarning lingvokulturologik va tarjimaviy jihatlariga e'tibor qaratadilar. Ushbu ishda mazkur yondashuvlar **o'zaro tahliliy solishtirish** asosida yoritiladi.

A.V. Kunin fikriga ko'ra, frazeologik birliklar tasodifiy emas, balki **oldindan belgilangan funksional dasturga ega** bo'lgan til birliklaridir. U ularning dialogik diskursda muntazam va tizimli ishlatilishini aynan shu xususiyat bilan izohlaydi. Kunin frazeologik birliklarning **kommunikativ, nominativ va kognitiv funksiyalarini doimiy** deb hisoblaydi. Bu yondashuv frazeologizmlarni dialogda oddiy bezak emas, balki asosiy mazmun tashuvchi birlik sifatida talqin qiladi.

Sh. Balli esa masalaga biroz boshqacha yondashadi. Uning fikricha, dialogik nutqda frazeologik birliklarning eng muhim ahamiyati ularning **stilistik va emotsional-ekspressiv imkoniyatlari** bilan bog'liq. Agar Kunin frazeologizmlarning strukturaviy-funksional tomonini asosiy deb bilsa, Balli ularni **so'zlovchining ichki munosabati va bahosini ifodalovchi vosita** sifatida ko'radi. Bu ikki qarashni solishtirganda, Kuninning yondashuvi ko'proq tizimli va umumiy bo'lsa, Ballining qarashlari subyektivlik va nutqiy ta'sirga urg'u beradi. G.E. Xakimovanning tadqiqotlarida frazeologik birliklar **madaniy kod tashuvchisi** sifatida talqin qilinadi. U frazeologizmlarni xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va mentalitetini aks ettiruvchi birliklar deb hisoblaydi. Dialogik diskursda bu jihat ayniqsa muhim, chunki suhbat ishtirokchilari umumiy madaniy bilimga tayangan holda muloqot qiladi. Bu yondashuv Kunin nazariyasini to'ldiradi. Kunin frazeologik birliklarning kognitiv funksiyasini umumiy bilish jarayoni bilan bog'lasa, Xakimova bu bilish jarayonining **milliy-madaniy asosini** ochib beradi. Demak, frazeologik birliklar dialogda nafaqat axborot uzatadi, balki suhbatdoshlar o'rtasida madaniy yaqinlikni ham ta'minlaydi.

Frazeologik birliklarning dialogdagi ahamiyati ularning **pragmatik yo'naltirilganligi** bilan ham belgilanadi. Kunin pragmatik funksiyani frazeologizmlarning adresatga maqsadli ta'sir ko'rsatish qobiliyati sifatida talqin qiladi. Bu jihat Ballining stilistik yondashuvi bilan uyg'unlashadi, chunki stilistik ta'sir ham pragmatik maqsadga xizmat qiladi.

A. Haydarov va G. Jo'raqulova frazeologik birliklarning tarjimasini tahlil qilar ekan, ularning pragmatik qiymati ko'pincha tarjimada yo'qolib ketishini ta'kidlaydilar.



Bu fikr dialogik diskurs uchun ayniqsa dolzarb, chunki dialogda frazeologik birlikning ohangi, kinoyasi yoki emotsional ta'siri asosiy rol o'ynaydi. Shu bois, ularning qarashlari Kunin va Balli nazariyalarini amaliy jihatdan to'ldiradi.

Z. Narimonova frazeologik birliklarni tarjima qilishda **so'zma-so'z tarjima samarasiz** ekanini ko'rsatadi. Uning fikricha, dialogik diskursda tarjimon frazeologik birlikning nafaqat ma'nosini, balki uning **funksional va pragmatik yukini** ham saqlashi kerak.

Bu yondashuv Kuninning funksional nazariyasiga bevosita mos keladi. Agar frazeologik birlik muayyan funksiyani bajarayotgan bo'lsa, tarjimada ham shu funktsiya saqlanmasa, dialogning kommunikativ samaradorligi pasayadi. Shu nuqtai nazardan, Narimonova va Haydarov-Jo'raqulova qarashlari Kuninning nazariyasini tarjima amaliyotida tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar dialogik diskursda nutqning tabiiyligi, ta'sirchanligi va mazmuniy boyligini ta'minlovchi muhim til birliklaridir. Turli manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarning ahamiyatini faqat bitta nuqtayi nazardan baholab bo'lmaydi. Ular bir vaqtning o'zida kommunikativ, kognitiv, pragmatik va madaniy vazifalarni bajaradi. Ayniqsa, dialogik diskursda bu birliklar muloqot samaradorligini oshirib, suhbatdoshlar o'rtasida chuqurroq tushunishni ta'minlaydi.

Frazeologik birliklarning nutqdagi qo'llanilish xususiyatlari

Frazeologik birliklar til tizimida alohida semantik va funksional qatlamni tashkil etib, nutq jarayonida tayyor holda qo'llaniladigan, ko'chma ma'noga ega barqaror birikmalar sifatida namoyon bo'ladi. A. V. Kunin ta'kidlaganidek, frazeologik birliklar tasodifiy emas, balki oldindan belgilangan funksional dasturga ega bo'lib, nutqda muayyan kommunikativ vazifani bajarishga xizmat qiladi. Ayniqsa dialogik diskursda ularning qo'llanilishi faol bo'lib, muloqotni ixcham, emotsional va ta'sirchan qiladi.

Dialogik nutqda frazeologik birliklar ko'pincha so'zlovchining munosabati, bahosi va niyatini ochiq ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi. Masalan, oddiy leksik birliklar orqali uzoq izoh talab etiladigan holatlar frazeologik birlik yordamida qisqa va aniq yetkaziladi. Bu holat til iqtisodiyoti tamoyili bilan bevosita bog'liq bo'lib, frazeologik birliklarning nutqni semantik siqish xususiyatini namoyon etadi.

Charles Bally frazeologik birliklarning nutqdagi ahamiyatini, avvalo, ularning stilistik va emotsional-ekspressiv imkoniyatlari bilan izohlaydi. Unga ko'ra, aynan og'zaki va dialogik nutqda frazeologizmlar so'zlovchining ichki hissiy holatini, kinoyasini yoki bahosini kuchli ifodalashga xizmat qiladi. Bu yondashuv Kuninning funksional nazariyasini to'ldirib, frazeologik birliklarning nutqiy ta'sirchanligini chuqurroq ochib beradi.

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklar tobora ko'proq **lingvokulturologik nuqtayi nazardan** o'rganilmoqda. G. E. Xakimova tadqiqotlarida frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar va mentalitetini aks ettiruvchi **madaniy kod** sifatida talqin qilinadi. Dialogik diskursda bu jihat ayniqsa



muhim, chunki suhbat ishtirokchilari umumiy madaniy bilimga tayangan holda muloqot qiladi.

Frazeologik birliklarning lingvokulturologik mazmuni ularning tarjimasida asosiy muammolardan biriga aylanadi. Bir tilda muayyan madaniy konnotatsiyaga ega bo'lgan frazeologizm boshqa tilda mutlaqo tushunarsiz yoki noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Shu sababli frazeologik birliklarning qo'llanilishi va tarjimasini masalasi faqat lingvistik emas, balki **madaniy moslik** nuqtayi nazaridan ham yondashuvni talab etadi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish tarjimashunoslikdagi eng murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Z. Narimonova ta'kidlaganidek, frazeologik birliklarning ko'chma ma'nosi va stilistik bo'yoqdorligi ularni so'zma-so'z tarjima qilish imkonini deyarli istisno qiladi. So'zma-so'z tarjima ko'pincha semantik buzilish yoki pragmatik ta'sirning yo'qolishiga olib keladi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishdagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- frazeologik birlikning **leksik ekvivalenti yo'qligi**;
- milliy-madaniy konnotatsiyaning saqlanmasligi;
- emotsional va pragmatik ma'noning yo'qolishi;
- dialogik nutqdagi tabiiylikning buzilishi.

A. Haydarov va G. Jo'raqulova tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, ayniqsa dialogik diskursda frazeologik birliklarning noto'g'ri tarjimasini butun muloqotning ohangini o'zgartirib yuborishi mumkin. Chunki dialogda frazeologizm ko'pincha kinoya, yumor yoki baholovchi vazifani bajaradi.

4. Tarjima strategiyalari va ularning tahlili

Ilmiy manbalarda frazeologik birliklarni tarjima qilishda bir nechta asosiy strategiyalar ko'rsatiladi:

4.1. Muqobil frazeologik birlik orqali tarjima

Bu eng samarali usul bo'lib, maqsad tilida mazmun va funksiyasi jihatidan mos keluvchi frazeologik birlik tanlanadi. Bunday tarjima dialogik nutqning tabiiyligini saqlab qoladi.

4.2. Tavsifiy (izohli) tarjima

Agar muqobil frazeologizm mavjud bo'lmasa, frazeologik birlikning ma'nosi izoh orqali beriladi. Biroq bu usul dialogik nutqda ixchamlikni kamaytiradi.

4.3. Madaniy moslashuv asosidagi tarjima

Bu usulda frazeologik birlik maqsad til madaniyatiga mos holda qayta ifodalanadi. Ushbu yondashuv lingvokulturologik moslikni ta'minlaydi, ammo tarjimondan yuqori madaniy va pragmatik kompetensiyani talab etadi. Kunin nazariyasiga ko'ra, qaysi strategiya tanlanishidan qat'i nazar, frazeologik birlikning **asosiy funksiyasi** saqlanib qolishi zarur. Aks holda tarjima kommunikativ jihatdan muvaffaqiyatsiz bo'ladi.



Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarning qo'llanilishi va tarjimasini muammolarini bir yoqlama yondashuv bilan hal qilib bo'lmaydi. Kunin frazeologik birliklarni funksional tizim sifatida talqin qilsa, Balli ularning stilistik va emotsional qimmatini birinchi o'ringa qo'yadi. Xakimova esa bu birliklarning madaniy asosini ochib beradi, Narimonova hamda Haydarov-Jo'raqulova esa ushbu nazariyalarni tarjima amaliyotida sinovdan o'tkazadi.

Bu yondashuvlar o'zaro solishtirilganda, ularning bir-birini inkor etmasligi, aksincha, kompleks ilmiy manzara hosil qilishi ayon bo'ladi. Frazeologik birliklarning muvaffaqiyatli tarjimasini aynan shu kompleks yondashuvga asoslanishi lozim.

Frazeologik birliklar nutqning, ayniqsa dialogik diskursning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ular kommunikativ, emotsional, pragmatik va madaniy vazifalarni bir vaqtda bajaradi. Ularning tarjimasini esa chuqur lingvistik bilim bilan bir qatorda, madaniy va pragmatik sezgirlikni ham talab etadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarning qo'llanilishi va tarjimasini muammolari kompleks va ko'p qirrali bo'lib, ular zamonaviy tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklar dialogik diskursda nutqning mazmuniy, emotsional va pragmatik jihatdan boyishini ta'minlovchi muhim til birliklari hisoblanadi. Ular muloqot jarayonida oddiy leksik birliklarga nisbatan yuqori darajadagi ifodaviylikka ega bo'lib, so'zlovchining munosabati, bahosi, hissiy holati va kommunikativ niyatini aniq va ixcham tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Ilmiy manbalar tahlili frazeologik birliklarning dialogik nutqda tasodifiy emas, balki oldindan belgilangan funksional tizim asosida qo'llanilishini ko'rsatdi. A.V. Kunin tomonidan ilgari surilgan kommunikativ, nominativ va kognitiv funksiyalar frazeologik birliklarning nazariy asosini tashkil etib, ularning nutqdagi barqaror faoliyatini izohlaydi. Sh. Balli qarashlarida esa frazeologik birliklarning stilistik va emotsional-ekspressiv ahamiyati alohida ta'kidlanib, bu birliklarning dialogik diskursdagi ta'sirchanlik darajasi ochib beriladi.

Lingvokulturologik yondashuv asosida olib borilgan tahlillar frazeologik birliklarning xalq madaniyati, tarixiy tajribasi va mentalitetini aks ettiruvchi muhim vosita ekanini tasdiqlaydi. Bu jihat dialogik diskursda suhbatdoshlar o'rtasida madaniy yaqinlik va o'zaro tushunishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, aynan mana shu madaniy xususiyat frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Tarjimashunoslikka oid tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, frazeologik birliklarni so'zma-so'z tarjima qilish ko'pincha semantik va pragmatik yo'qotishlarga olib keladi. Dialogik diskursda esa bunday yo'qotishlar muloqotning umumiy ohangi va mazmuniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli frazeologik birliklarni tarjima qilishda funksional, pragmatik va lingvokulturologik moslikni ta'minlash zarur. Muqobil frazeologik birliklardan foydalanish, tavsifiy tarjima va madaniy moslashuv



strategiyalari ushbu muammolarni hal etishda eng samarali yo'llar sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklarning qo'llanilishi va tarjimasi masalasi kompleks yondashuvni talab etuvchi dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Ularni dialogik diskurs doirasida o'rganish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy tarjimashunoslik uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kunin. *English Phraseology*. – Moscow: Higher School, 1970.
2. Charles Bally. *French Stylistics*. – Moscow, 1961.
3. G. E. Xakimova. *Frazeologik birliklarning lingvokulturologik aspekti*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Z. Narimonova. *Frazeologik birliklarning tarjimasi haqida*. – Toshkent: O'zMU, 2007.
- A. Haydarov, G. Jo'raqulova. *Frazeologik iboralar tarjimasi xususida*. – Toshkent, 2012.
5. Madina Shukurova. Development of the informative structure of the lexical-conceptual field of Ethics in the 16th–18th centuries. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2020.
6. Zarifovna R.N., Alisherovna A.Z. Applications of sarcastic euphemisms in modern linguistics. *Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences*, 2023.
7. Kodirova H. Mavjud pragmatik kommunikatsiya nazariyalarida "aldov/yolg'on" nutqiy aktlarning namoyon bo'lishi. *BuxDU ilmiy jurnali*, 2023.